



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-69-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash, ya'ni davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari bo'yicha tuman G'aznachilik bo'limi boshlig'ining hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, joriy yilda tuman bo'yicha jami 2582 ta 51,4 mlrd.so'mlik shartnomalar ro'yxatga olingan bo'lib, Shundan:

- elektron do'kon orqali jami 1445 ta 4,3 mlrd.so'mlik;
- elektron auksion orqali 32 ta 0,5 mlrd.so'mlik;
- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali 106 ta 23.7 mlrd.so'mlik;
- yagona yetkazib beruvchilar bilan jami 160 ta 3,1 mlrd.so'mlik;
- to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali jami 839 ta 20,1 mlrd.so'mlik shartnomalar g'aznachilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 122-moddasi 3-bandida "Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning budgetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-soni "Davlat budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini 6-bandida "Belgilab qo'yilsinki, budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shart va faqat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kiradi" deb ko'rsatilgan.

Ammo joriy yilda Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablariga rioya

etilmagan holda, budjet tashkilotlari bilan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar o'rtasida jami 47 holatda 2,9 mlrd.so'mlik shartnomalar tuzilgan va g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tkazilmagan. Buning natijasida asoslanmagan kreditor qarzdorliklarni yuzaga keltirgan. Ushbu qarzdorliklarni undirish uchun iqtisodiy va hakamlik sudlariga murojaat qilib ijro hujjatlari qabul qilib to'lovlarni amalga oshirgan.

Sohalar kesimida esa, maktabgacha ta'limda 0.4 mlrd.so'm, tuman hokimliklari 0,8 mlrd.so'm, sog'liqni saqlash 0,4 mlrd.so'm, xalq ta'limi 0,6 mlrd so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-iyundagi "Ta'sischisi budjet tashkilotlari bo'lgan unitar korxonalariga g'aznachilik orqali xizmat ko'rsatishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 345-sonli Qaroriga asosan, hozirgi kunda avtomobil yo'llari boshqarmasi tasarrufidagi 1 ta korxonaga g'aznachilik tizimi bilan qamrab olingan.

2023-yildan boshlab 1 ta korxonaga to'liq g'aznachilik bilan qamrab olinadi. Qamrab olingan davlat unitar korxonalariga davlat xaridlarida qatnashish bo'yicha amaliy yordam beriladi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash, ya'ni davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari bo'yicha tuman G'aznachilik bo'limi boshlig'i R.Berdiyevning hisobotini tinglab, deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, joriy yilda tuman bo'yicha jami 2582 ta 51,4 mlrd.so'mlik shartnomalar ro'yxatga olinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman G'aznachilik bo'limi (R.Berdiyev):

– doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-iyundagi 345-sonli "Ta'sischisi budjet tashkilotlari bo'lgan unitar korxonalariga g'aznachilik orqali xizmat ko'rsatishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, davlat unitar korxonalarini g'aznachilik bilan to'liq qamrab olish va davlat xaridlariga qatnashishida amaliy yordam ko'rsatib borsin.

3. Tumandagi barcha budjet tashkilotlari doimiy ravishda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini, shuningdek, buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalarini majburiy tartibda G'aznachilik bo'limlaridan Davlat xaridlari tartib-qoidalariga rioya etgan holda ro'yxatdan o'tkazsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov):

– doimiy ravishda davlat xaridlari sohasida budjet tizimi budjetlari mablag‘laridan oqilona foydalanish, xarid qilish tartib-taomillari turlarini takomillashtirish va ularning qo‘llanilishini kengaytirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini ta‘minlash yuzasidan choralar ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddi rahbarlar **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov